

Qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlar haqida



O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi O'RQ-823-sonli qonuni aynan bolalar huquqini himoya qilishga huquqiy asos bo'ladi hamda bolalarni xorijiy mamlakatlar hududida zarur darajadagi vasiylik va homiylisiz qoldirishning oldini olishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi bola huquqiga oid yangi modda bilan to'ldirildi (1221-modda). Unga ko'ra, bolani chet davlat hududida nazoratsiz qoldirish O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lgan bolani ota, ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxs yoxud hamrohlik qiluvchi shaxs tomonidan chet davlat hududida nazoratsiz qoldirish, xuddi shunday xatti-harakat uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa yoxud O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lgan va chet davlat hududida turgan bolaning sud tomonidan belgilangan muddatda O'zbekiston Respublikasi hududiga qaytarilishini ta'minlamaslik — bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud

uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmish takroran yoki xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa, badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa — uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz sakson soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha qilmish o'ta xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa, jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lsa, boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, — besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Agar shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lgan bolaning O'zbekiston Respublikasiga qaytarilishini jinoyat aniqlangan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida ta'minlagan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi, bundan ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan hollar, shuningdek ilgari ushbu modda bo'yicha javobgarlikdan ozod qilingan shaxslar mustasno».

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mazkur Qonun bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatini himoya qilib, ularni chet davlat hududida nazoratsiz qoldirish uchun ham javobgarlik belgilaydi.

Termiz tumanlararo iqtisodiy sudining raisi Jumayev Diyor Bozorovich.